

KIYIM TARAQQIYOTINING IJTIMOIIY-ESTETIK ASOSLARI: TARIXIY DAVLARDA USLUB VA MODANING O'RNI

Shamsiyeva Marjona Uchqun qizi
Qarshi DU San'atshunoslik fakulteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kiyim-kechakning insoniyat tarixidagi o'rni, uning uslubiy va estetik shakllanish bosqichlari, moda bilan bog'liq ijtimoiy va madaniy jarayonlarga ta'siri tahlil qilinadi. Turli tarixiy davrlardagi kostyum shakllari orqali insonning estetik ideali, ijtimoiy mavqei va madaniy qarashlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kiyim, uslub, moda, estetik ideal, tarixiy davr, kostyum, garmoniya.

Kiyim insoniyat madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat himoya vositasi, balki jamiyatning ma'naviy-estetik dunyoqarashini ifoda etuvchi fenomen hisoblanadi. Kiyim evolyutsiyasi — bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ma'naviy qadriyatlari va san'atga bo'lgan munosabatining yaqqol ko'rinishidir¹.

Kiyimning ibtidoiy shakllanishi va uslub tushunchasi

Insoniyatning dastlabki bosqichlarida kiyim hayvon terisi, baliq ichaklari va o'simlik tolalaridan tayyorlangan. Bunda asosiy maqsad sovuqdan himoyalash bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan kiyim estetik va ijtimoiy identifikatorga aylandi².

Kiyimdagi **uslub** tushunchasi — bu jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatini ifodalovchi barqaror badiiy belgilar majmuasidir. Uslub muayyan davrning badiiy tili, estetik ideali sifatida qaraladi³.

Antik davr: me'yor va garmoniya uyg'unligi Qadimgi Yunoniston va Rim davrida estetik ideal sifatida inson gavdasi markazga chiqarilgan. Bu davrda me'yor (lot. norma) — go'zallik mezoni, garmoniya esa barcha qismlarning muvozanati sifatida talqin etilgan⁴. Yunon arxitekturasida va kostyumlari "inson gavdasining aks sadosi" tarzida yaratilgan. Kostyumlar to'g'ridan-to'g'ri inson shakli bilan uyg'unlashgan drapirlangan matolardan iborat bo'lgan.

O'rta asrlar: estetik idealning o'zgarishi

Feodalizm va cherkovning mafkuraviy ta'siri ostida o'rta asrlarda inson tanasi yashiriladigan estetik ideal shakllandi. Gavda go'zalligidan zavqlanish gunoh hisoblangan, shu sababli kostyumlar ko'p qatlamli, og'ir va tanani butkul yopuvchi bo'lgan⁵. Bunday kiyimlar qattiq korset, shnurlar va cho'zinchoq poyabzallar orqali gavda plastikasi buzilgan tarzda shakllantirilgan. Bu davrda disproportsiya va asimmetriya ustuvor bo'lgan.

¹ Karimov A. *Moda san'ati va dizayn nazariyasi*. Toshkent, 2018.

² G'afurova D. *Kiyim madaniyati va zamonaviylik*. Samarqand, 2021.

³ Platon. *Davlat*. Toshkent: Afrosiyob nashriyoti, 2010.

⁴ Aristotel. *Poetika*. Toshkent: Fan, 1996.

Uygʻonish davri: gumanistik estetika

Uygʻonish davrida inson tabiatining goʻzalligini ulugʻlovchi estetik qarashlar shakllanadi. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael Santi kabi rassomlar inson gavdasini mukammallik namunasi sifatida tasvirlaganlar.

Kostyumlar ochiq, nafis, atlas va moʻyna bilan bezatilgan, estetik va estetik nafosat birligi yuksak darajaga koʻtarilgan.

Barokko va Rokoko uslublari: dabdabadorlikdan orzuga

XVII–XVIII asrlarda Barokko uslubi paydo boʻlib, unda teatrga xos harakatlar, dabdabadorlik, ijtimoiy mavqe ifodasi ustunlik qiladi. Kostyumlar keng yelka, poshnali poyabzal, koʻp qatlamli matolar orqali inson gavdasini katta qilib koʻrsatishga xizmat qilgan.

Keyinchalik Rokoko uslubi noziklik va orzular dunyosiga yoʻnaltirilgan. Kiyimlar engil, shaffof, «gazsimon» matolardan tikilib, ayol gavdasining bel, koʻkrak va boʻksa qismlariga urgʻu berilgan.

Zamonaviy davr: texnika va estetik erkinlik

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar, xususan Fransuz inqilobi (1789) va sanoat inqilobi oqibatida kiyim-kechakdagi estetik mezonlar tubdan oʻzgardi. Kiyimlar asta-sekinlik bilan funksionallik, erkinlik va amaliylik tamoyillari asosida shakllana boshlaydi⁵. Jamiyatdagi demokratik gʻoyalar, ayollar harakati va texnika rivoji inson salohiyatini ifodalashda yangi vositalarni taklif qiladi.

Bu davrga qadar ayollar kiyimida mavjud boʻlgan sunʼiy shakllar — korset, krinolin, turnyur kabi gavda shaklini majburan oʻzgartiruvchi elementlar asta-sekinlik bilan rad etiladi. Buning oʻrniga inson tanasining tabiiy shaklini koʻz-koʻz qiluvchi erkin kiyimlar modaga kiradi. Bu esa “bashanglik” tushunchasiga yangicha, individuallik va shaxsiy erkinlikni ifodalovchi mazmun baxsh etadi.

Zamonaviy moda tobora individuallik, oʻzini ifodalash vositasiga aylanadi. Modadagi uslubiy erkinlik, texnologik yangiliklar (sintetik matolar, ommaviy ishlab chiqarish, konfeksion tikuvchilik) estetik qadriyatlar xilma-xilligini yuzaga keltiradi. Ayniqsa XX asrda yirik dizaynerlar — Koko Shanél, Kristin Dior, Yevs Sen-Loran kabi modachilar yangi estetik idealni shakllantiradi: ayol obrazida kuch, nafislik va zamonaviylik uygʻunligi paydo boʻladi.

Bugungi kunga kelib moda jamiyatdagi jadal oʻzgarishlarning estetik ifodachisiga aylangan. Unda avvalgidek yagona goʻzallik ideali emas, balki koʻp qirrali, shaxsiy tanlovga asoslangan gibril estetika hukm suradi. Kiyim inson madaniy va estetik dunyoqarashining tarixiy ifodasidir. Har bir davrning kiyimi oʻzining ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy kontekstida shakllangan boʻlib, inson goʻzalligi haqidagi tasavvurlarning oʻzgarishini aks ettiradi. Shunday ekan, kiyim tarixi bu — insoniyat tafakkurining estetik shaklini oʻrganishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimov A. Moda sanʼati va dizayn nazariyasi. Toshkent, 2018.
2. Gʻafurova D. Kiyim madaniyati va zamonaviylik. Samarqand, 2021.

⁵ Gʻafurova, D. (2021). *Kiyim madaniyati va zamonaviylik. Samarqand: Ilm ziyo, 56-bet*

3. Platon. Davlat. Toshkent: Afrosiyob nashriyoti, 2010.
4. Aristotel. Poetika. Toshkent: Fan, 1996.
5. G'afurova, D. (2021). Kiyim madaniyati va zamonaviylik. Samarqand: Ilm ziyo, 56-bet